

## YO‘L PATRUL XIZMATI – HAYOT GAROVI

**Qo‘chqorov Azimjon Botirjon o‘g‘li**

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kursanti

E-mail: [qochqorovazimjon@gmail.com](mailto:qochqorovazimjon@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yo‘l-patrul xizmati xodimlarining o‘z xizmat vazifalarini bajarishdagi qator majburiyatlari belgilab berilgan, xususiyl mulkchilikka avtomobil sanoatining vujudga kelishi haqida ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** profilaktikasi, YPX, vizual, nishon, transport.

### ROAD PATROL SERVICE - A PLEDGE OF LIFE

#### ABSTRACT

In this article, a number of obligations of employees of the road patrol service in the performance of their duties are defined, and information is provided about the creation of the automobile industry under private ownership.

**Key words:** prevention, YPX, visual, target, transport.

### ДОРОЖНЫЙ ПАТРУЛЬ-ЗАЛОГ ЖИЗНИ

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье определен ряд обязанностей сотрудников дорожно-патрульной службы при исполнении ими своих должностных обязанностей, а также приведены сведения о создании автомобильной промышленности в частной собственности.

**Ключевые слова:** профилактика, ДПС, визуально, цель, транспорт.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng ijtimoi-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar hayotga izchil joriy etila boshlandi. Respublikani bozor iqtisodiyotiga o‘tib borish, xususiy mulkchilikka avtomobil sanoatining vujudga kelishi, chet ellar bilan teng huquqli iqtisodiy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi, fuqarolar moddiy farovonligi ortib borishi tabiiy ravishda avtomobil yo‘llarida va shahar ko‘chalarida harakat miqdorining ortib borishiga olib kelyapti. Mustaqillikdan avval Respublika bo‘yicha har 1000 nafar aholiga 35 dona yengil avtomobil to‘g‘ri krlgan bo‘lsa, bugungi kunda bu ko‘rsatkich yanada ortib boryapti. Shuning uchun hayotimizga yo‘l patrul xodimlari kerak, deb hisonlanadi.

Mamlakatimiz yo‘l-patrul xizmati xodimlari bizning hayotimizda muhim ro‘l o‘ynaydi. Agar yo‘l patrul xodimlari bo‘lmasa ko‘pgina xavfsizlik bo‘yicha muammolar kelib chiqadi. Ular bizning hayotimizda qanday o‘rni bilan ajralib turadi?! Ular ko‘p yillik tajribadan shuni aytishimiz mumkinki, samarali mehnat qiladi, yurtimizda jamoat xavfsizligi va xalqimiz osoyishtaligini ta‘minlaydi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga munosib hissa qo‘shadi, jinoyatchilikka qarshi kurashadi, huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirishga yordam beradi, fuqarolarning huquq-erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yo‘lidagi ibratli faoliyat ko‘rsatadi, sharafl burchini bajarishda mardlik va jasorat namunasini ko‘rsatadi, yosh avlodni ona Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi alohida xizmatlar qiladi.

Endi yo‘l-patrul xizmati xodimlarining burch va majburiyatlari haqida gap boshlasak.

Qonunchilikda, yo‘l-patrul xizmati (YPX) xodimlarining o‘z xizmat vazifalarini bajarishdagi qator majburiyatlari belgilab berilgan. Jumladan, YPX xodimi o‘z xizmat vazifalarini bajarishda quyidagilarga majbur:

- vizual kuzatuv hamda maxsus moslamalardan foydalangan holda qoidalar buzilganligini aniqlash;

- yo‘l harakati qatnashchisini to‘xtatganidan keyin uning oldiga borish, o‘zini tanishtirish, lavozimi, unvoni, familiyasi haqida ma’lumot berish, uning talabiga ko‘ra ko‘krak nishon belgisini ma’lum qilish va xizmat guvohnomasini ochiq holda ko‘rsatish;

- har qanday vaziyatda yo‘l harakati qatnashchilari bilan vazmin, xushmuomala, odobli va e’tiborli bo‘lish, ularga hurmat bilan hamda “Siz” deb murojaat qilish, yo‘l harakati qatnashchilari bilan o‘zaro munosabatlarda muomala madaniyati va qonuniylikka rioya qilish;

- yo‘l harakati qatnashchilariga ularni to‘xtatish sababini, sodir etilgan huquqbuzarlik yuzasidan aniq, lo‘nda tushuntirish berish;

- belgilangan tartibda berilgan ko‘rsatmaga asosan yo‘l harakati qatnashchilarining harakatini cheklash yoki taqiqlash;

- qoidalarni buzgan yo‘l harakati qatnashchisiga nisbatan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma rasmiylashtirish chog‘ida unga huquq va majburiyatlarini tushuntirish;

- huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq o‘z vaqtida tegishli choralarni ko‘rish;

- huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish choralari ko‘rish;

- huquqbuzarlikdan yoki baxtsiz hodisalardan jabrlanganlarga, hayoti (sog‘lig‘i) xavf ostida qolgan shaxslarga, tibbiy yordamga muhtoj bo‘lgan yo‘l harakati qatnashchilariga hamda yo‘l transport hodisasi oqibatida shikastlangan transport vositalarini belgilangan joyga olib borishda fuqarolarga yordam ko‘rsatish;

- ruxsat etilmagan, sertifikatga ega bo‘lmagan, sertifikatning amal qilish muddati tugagan yoki belgilangan tartibda ichki ishlar organlari hisobida mavjud bo‘lmagan maxsus moslamalardan foydalanmaslik;

- belgilangan harakatlanish tezligini oshirib, qoidalarni buzgan haydovchini maxsus moslamaning ko'rsatkichlari bilan tanishtirish, uning talabiga ko'ra moslamaning qiyoslash sertifikatini ko'rsatish;

- yo'l harakati qatnashchilariga yuqori turuvchi organ (mansabdor shaxs) yoki sudga shikoyat qilish huquqini tushuntirish.

Bundan tashqari, 2019-yil 1-iyuldan boshlab YPX xodimlari xizmat vazifalarini mobil videokameradan foydalangan holda olib borishni boshlagan va bu haqda yo'l harakati qatnashchilariga ma'lum qilishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, agarda yo'l patrul xizmati xodimlari o'z burch va majburiyatlarini bajarmasa, inson hayoti uchun ko'p muammoli vaziyatlar, katta yo'llarda xavf tug'diradigan transport hodisalari kelib chiqishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI: (REFERENCES)**

1. Каримов И.А. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади . - Т. , 2012 .
2. Афанасьев М.Б. Водителю о безопасности дорожного движения - М. , 2001  
Конопленко В.И. , Рыжков С.В. , Воробьев Ю.В.
3. Основы управления автомобилем и безопасность движения . – М. , 1999  
Конопленко В.И. и др .
4. Организация и безопасность дорожного движения: Учебник . - М. , 2007 .  
Азизов К.Х. Ҳаракат хавфсизлигини ташкил этиш асослари . - Т. , 2002 .